e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/xa3seg50

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHOIRALARI SHE’RIYATIDA AN’ANA VA POETIK YANGILANISH

Salimova Dilnavoz
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent.
e-mail: salimovadilnavoz@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0003-4887-9256

Annotatsiya.
Maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatida poetik yangilanish yo‘nalishida ijod qilayotgan shoiralarning asarlari tahlil qilinadi. Noan’anaviy lirikaning zamonaviy yo‘nalishlari hisoblangan motivatsion, ma’rifiy va ezoterik lirikaning o‘ziga xos xususiyatlari M. Oymatova, D. Mingboyeva va D. Komil singari shoiralar ijodi misolida yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek shoiralari she’riyatida an’anaviy poetik tamoyillar va yangicha badiiy izlanishlarning o‘zaro munosabatlariga e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: an’ana, poetik yangilanish, noan’anaviylik, zamonaviy o‘zbek shoiralari, ma’rifiy lirika, ezoterik lirika, transsendentlikka intilish.

ТРАДИЦИИ И ПОЭТИЧЕСКОЕ ОБНОВЛЕНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ПОЭТЕСС

Салимова Дилнавоз
Джизакский государственный педагогический университет, доцент.

Аннотация.
В статье анализируется творчество современных узбекских поэтесс, работающих в направлении поэтического обновления. На примере произведений М. Ойматовой, Д. Мингбоевой и Д. Комил рассматриваются характерные особенности мотивационной, просветительской и эзотерической лирики как современных направлений нетрадиционной поэзии. Особое внимание уделяется взаимодействию традиционных поэтических принципов и новых художественных поисков в творчестве современных узбекских поэтесс.
Ключевые слова: традиция, поэтическое обновление, нетрадиционность, современные узбекские поэтессы, просветительская лирика, эзотерическая лирика, стремление к трансцендентности.

TRADITION AND POETIC INNOVATION IN THE POETRY OF CONTEMPORARY UZBEK WOMEN POETS

Salimova Dilnavoz
Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor.

Abstract.
This article examines the works of contemporary Uzbek women poets who explore poetic innovation in modern Uzbek literature. Drawing on the poetry of M. Oymatova, D. Mingboyeva, and D. Komil, the study analyzes the distinctive features of motivational, educational, and esoteric lyric poetry as contemporary forms of nontraditional lyrical expression. Particular attention is paid to the interaction between traditional poetic principles and innovative artistic approaches in the works of contemporary Uzbek women poets.
Keywords: tradition, poetic innovation, nontraditional poetry, contemporary Uzbek women poets, educational lyric poetry, esoteric lyric poetry, aspiration toward transcendence.

Kirish. Badiiy ijodda an’ana va poetik yangilanish ijodkorning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlardan sanaladi. Ushbu ikki yo‘nalish ijod jarayonida birdek namoyon bo‘lishi yoki aksincha, bir asarda an’anaviylik saqlangan bo‘lsa, boshqa bir asarda yangilik — novatorlik yuzaga kelishi mumkin. Har ikki holat ham o‘ziga xos uslub, mazmun va shakl kabi poetik xususiyatlarga ega. An’anaviy usuldan farqli ravishda, noan’anaviy uslubdagi she’riyatda qofiya va vazn qoidalariga qat’iy rioya qilish talab etilmaydi. Natijada erkin she’r ijodkorga fikr va tuyg‘ularini erkin ifodalash imkonini beradi. Ijodkorning novatorlik asosidagi yondashuvi natijasida neologizmlar va metaforalarning noodatiy shakllari yuzaga keladi. Bunday yondashuvda shoir nafaqat she’rning shakliy qoidalaridan chekinishga intiladi, balki uning mazmuniga yangicha ruhda e’tibor qaratishni ham ustuvor deb biladi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonga xos dolzarb mavzularga murojaat qilishni taqozo etadi. Zamon ruhining turli madaniyatlar bilan qorishib ketishi va ularning bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi natijasida yangi adabiy yo‘nalishlar shakllanadi, deb taxmin qilish mumkin. Bu borada adabiyotshunoslarning futurizm hodisasi haqidagi quyidagi fikrlarini misol tariqasida keltirishni o‘rinli deb hisoblaymiz:

“…jamiyatdagi taraqqiyot tendensiyalaridan kelib chiqqan holda uning ertasini, ertangi inson va insoniy munosabatlarni o‘zlaricha tasavvur qildilar va shunga mos adabiyotni yaratish da’vosi bilan maydonga chiqdilar. Ya’ni asrlar davomida shakllangan an’anaviy madaniyatga ilmiy-texnik taraqqiyot va urbanizatsiyalashuv davri madaniyatini qarshi qo‘yadi. Kelajak haqidagi tasavvur esa mazkur jarayonlar bilan bog‘liq holda kishilar dunyoqarashi, axloqi,

ISSN 3060-5059 (Online)

turmush tarzi va shu kabilarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni (hayot ritmining tezlashuvi, holat va taassurotlarning keskin o‘zgarishi, ma’naviy-axloqiy tanazzul, shaxsning yemirilishi va olomonning qismga aylanishi va b.) mutlaqlashtirish asosida amalga oshadi” [1].

Poetik yangilanishlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga muayyan tarixiy, ijtimoiy, ma’naviy hamda estetik omillar ta’sir ko‘rsatadi. XX asr boshlarida shakllangan futurizm an’anaviy badiiy ifoda me’yorlarini qayta ko‘rib chiqish, poetik til, obrazlar tizimi va she’riy shaklda yangicha tajribalar yaratishga intilishi bilan adabiy jarayonda muhim hodisaga aylandi. Bugungi she’riyatda futurizmning tarixiy-estetik tamoyillarini aynan takrorlash emas, balki avangard adabiyotga xos bo‘lgan shakliy izlanishlar, poetik erkinlik va badiiy ifodani yangilashga intilishning turli ko‘rinishlari kuzatiladi. Zamonaviy dunyoning murakkab manzarasi, insonning hayot va o‘lim, borliq va yo‘qlik, oxirat va abadiyat haqidagi o‘y-kechinmalari, qo‘rquv va umidlari, ilgari keng muhokama etilmagan bilim hamda qarashlarga qiziqishi, shaxs ichki olamining psixologik murakkabliklari, texnogen va tabiiy falokatlar bilan bog‘liq tashvishlar bugungi she’riyatning mavzuviy doirasi kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday mavzularning badiiy talqini ijodkorning olam va inson haqidagi individual tasavvurlari, estetik qarashlari hamda poetik tafakkuriga bog‘liq holda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi.

Yangi poetik izlanishlarning muhim belgilaridan biri an’anaviy she’riy ifoda me’yorlarini yangicha badiiy yechimlar bilan boyitish, ayrim hollarda esa ularni qayta talqin etishdir. Bunda she’rning vazni, qofiyalanish tartibi, kompozitsion qurilishi, poetik sintaksisi, obrazlar tizimi va tasvir vositalarida yangicha yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda noan’anaviylik lirik tur doirasida nafaqat shakliy o‘zgarishlarni, balki inson va borliqni idrok etish, ularni badiiy talqin qilishning yangicha imkoniyatlarini ham yuzaga chiqaradi. Natijada she’riyat o‘zining an’anaviy ifoda vositalarini yangilash bilan birga, voqelikni badiiy idrok etishning o‘ziga xos tajriba maydoniga aylanadi.

O‘zbek adibalari poetik idrokining originalligi, musaffo his-tuyg‘ularining rang-barang obrazlarda ifodalanishi o‘tgan asr an’anaviy she’riyatini takomillashtirgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib, zamonaviy o‘zbek shoiralari an’anaviy uslublar bilan bir qatorda noan’anaviy yondashuvlarda ham ijod qilib, nazm kaleydoskopining turfa ko‘rinishlarini kashf etmoqdalar. Bugun ushbu kaleydoskop palitrasida taniqli shoiralar izidan borib, Sharq mumtoz adabiyoti va o‘zbek she’riyatining an’anaviy shakl hamda janrlariga sodiq qolgan ijodkorlar avlodinigina emas, balki noan’anaviy uslubda ijod qilayotgan qalam sohibalari ijodining yangi qirralari kashf etilayotganiga ham guvoh bo‘lish mumkin. Hozirgi o‘zbek poeziyasida Q. Rahimboyeva, G. Rahimova, X. Rustamova, Z. Mo‘minova, S. To‘ychiyeva, Sh. Ahrorova, M. Oymatova, G. Begim, F. Kamolova, O. Yo‘ldosheva, Z. Mamadaliyeva, H. Ahmedova, M. Karimova, U. Abduazimova, O‘. Xoldorova, F. Husainova, Z. Rahimova, Z. Ro‘ziyeva, O. Suyundikova, Z. Mirzo, G. Saidg‘ani, O. Bekmurodova, N. Umarova, K. Nosirova, O. Asilbek qizi, D. Mingboyeva, A. Amirova, S. Hayitboyeva, G. Asqarova, D. Komil, X. Nishonova kabi shoiralar safining tobora kengayib borayotgani quvonarlidir. An’anaviy va ayrim hollarda noan’anaviy yondashuvlarda ijod qilayotgan mazkur adiba va shoiralar asarlarining o‘z zamonasi kitobxonlari qalbi va shuuri bilan hamnafas bo‘layotgani bejiz emas. Shoiralar poetik mahoratida lirik poeziyaning kompozitsion qonun-qoidalari va azaliy talablariga qat’iy amal qilish bilan birga, bugungi kitobxonning ichki olami bilan oshno bo‘la oladigan individual ijod qirralari yorqin ko‘zga tashlanadi.

Noan’anaviy uslubda ijod qiluvchi shoiralarning lirik kechinmalari, poetik fikrlashi va badiiy idrokida inson va olam yaxlitligini ifodalovchi keng qamrovli falsafiy mushohadalar yoki muayyan ijtimoiy da’vatlar har doim ham ko‘zga tashlanmaydi. Aksincha, tugab-tuganmas tashvishlar girdobidagi inson hayotidan chekinib, baland va bepoyon kengliklarga talpinayotgan ruhning sadosi namoyon bo‘ladi. Bu ruh hisob-kitoblar girdobiga tobora tortilib borayotgan inson qalbining “raqamlashgan olam”dagi goh sokin va xavotirli, goh masrur va oshkora holatidan darak beradi.

Har bir mahoratli shoir ko‘nglidagi kechinmalari, ehtiroslari, idroki, ongi, umuman, nazmga ko‘chgan butun borlig‘i orqali ijodining individual tabiatini namoyon qilgani uchun ham shoir degan nomga munosib bo‘la oladi. Chunki an’anaviy kompozitsiya tizimida avval qo‘llanilmagan unsurlarning joriy etilishi natijasida noan’anaviylikning yuzaga kelishi ijodkor individualligini ko‘rsatadi. Bugun o‘zbek she’riyati manzarasida jahon she’riyati tajribasida faol bo‘lgan yo‘nalishlar — motivatsion, ma’rifiy va ezoterik lirika namunalarining uchrayotgani fikrimizning tasdig‘i bo‘la oladi. Motivatsion va ma’rifiy lirikaga oid izlanishlarimizni keyingi tadqiqotlarimizga qoldirib, e’tiborimizni ezoterik lirikaga mansub she’rlarga qaratishni maqsad qildik.

Ezoterik lirikada odatda ruhiy “men”ning tashqi dunyodan ichki dunyo sari sayohatini kuzatish mumkin. “Poeziyaning ezoterik aspekti” tadqiqotida keltirilishicha, shoir lirikada o‘z fikrini uch xil vositadan biriga tayangan holda ifodalab, ruhiy maqsadini ochib beradi: aniq va sodda so‘zlar, ramziy va tamsiliy ifodalar hamda muqaddas kalom va belgilar orqali yetkazadi. O‘zbek shoiralari ijodidagi ezoterik xarakterdagi she’rlar kuzatilganda, ularning asosan sevgi-muhabbat, tabiat va falsafiy lirika yo‘nalishlariga mansub mavzulardan iborat ekani ayon bo‘ladi.

Sevgi-muhabbat mavzusi deyarli barcha shoiralar ijodida yetakchi mavzu sifatida an’anaviylik kasb etadi. Biroq sevgi-muhabbat lirikasida quvonch, zavq-shavqdan ko‘ra hijron, intizorlik, ayriliq, alam, afsus-nadomat, yordan yuz o‘girish, jismonan voz kechish kabi ayriliq hissiyotlari bilan bog‘liq pafos ustuvorlik qiladi. Lirik “men”ning tushkun kayfiyati taskin topish uchun muayyan aybdorni qidirmaydi, kimnidir ayblamaydi, balki taqdir hukmiga ko‘nish orqali taskin topadi. O‘z ichki olamiga murojaat qilish ezoterik lirikaga xosdir. Bunday she’rlarda moddiy olamdan chekinib, ruhiy olam sari intilgan lirik “men”ning subyektiv dunyoda o‘zini topganini ko‘ramiz. Shoira Dilrabo Mingboyeva o‘z “men”ining hissiy tug‘yonini bosishga urinib, “ichdan ichga” konsepsiyasiga muvofiq ichki dunyosiga kirib ketadi.

Qara,
Qo‘llari titrab sening haqqingga
duo qilayotgan daraxtman...
O, g‘ussam –
Qismatning qattol go‘zali!
Senga uzatilgan qo‘llarim gullasin, so‘lsin – yetmasin!

ISSN 3060-5059 (Online)

Senga yetmoqlikka umrim yetmasin!

Tabiat lirikasi namunalaridagi rang-barang, turfa peyzajning rassomona tasvirlari shoiralarning ruhiy holatlari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shoiralar tabiat hodisalarini kuzatar ekanlar, ichki dunyosida mushohada etgan haqiqatlarni ifodalash uchun peyzaj va lirik “men” o‘rtasidagi dialogga murojaat qiladilar. Dilfuza Komilning “Kuz portretlari” she’rida fasl manzarasini tabiat koloriti orqali tasvirlagan shoiraning maftunligini his qilish bilan cheklanmaymiz, balki she’rda his-tuyg‘ulari peyzaj ichiga singdirib yuborilgan qalb nigohining o‘quvchi yuragiga qadalganini ham sezamiz. Ushbu manzaralar poetik metaforalar vositasida jonlantiriladi. She’riyatda psixologik impressionizm unsurlariga xos bo‘lgan, ya’ni tabiat hodisalarini kuzatish jarayonida bir lahzada kechgan nozik his-tuyg‘ularni namoyon qilish an’anasidan biroz chekiniladi. Uning o‘rniga hozirgi kunda sodir bo‘layotgan global hodisalar va yechimi topilmayotgan muammolar og‘rig‘idan o‘z-o‘ziga chinqirayotgan qalb obrazi “kuz portreti”dagi rutubatli manzaralarga muvoziy qo‘yilishi bilan noan’anaviylik kasb etiladi:

O‘chib qoldi osmonning shami,
Yapraq so‘nggi she’rin tamomlar.
Qizlarini soldi bozorga
Beli bukik, qari ishkomlar.
Ne qilarin bilmaydi shamol
Ko‘rib ko‘ksi ochiq gullarni…
Kunbotarga ketmoqda qushlar,
Tangrim, O‘zing asra ularni!
Xazonlardan tutar darddasta
Ketayotib
Za’faron baxtlar.
Xayrlashar ko‘zi jovdirab
Men belini quchgan daraxtlar…
Xudo,
Og‘ir bo‘larmi shuncha
Kechirmoqlik vido faslini?
Unutolmay yashayman endi
Borliqning shu qiyofasini…

She’rdagi “ko‘ksi ochiq gullar”, “darddasta xazonlar”, “za’faron baxtlar”, “vido fasli”, “yaproqning so‘nggi she’ri” kabi original tashbeh va tasvir vositalari, nafis, go‘zal hamda latif ifodalar aslida shoira yuragidan o‘tgan ayriliq iztirobining realistik tarzda ochib berilganidan dalolat beradi.

Falsafiy-ruhiy xarakterdagi lirika namunalarida shoiralar inson va borliq munosabatlarining botiniy qatlamlari, inson tabiati hamda ruhiy olamning murakkab qirralarini o‘ziga xos poetik ifodalarda namoyon etadilar. Bunday she’rlarda insonning ruhiy-ma’naviy kamolotga intilishida o‘z ichki — botiniy olamiga yuzlanishi, o‘zligini anglashi va hayotiy haqiqatlarni idrok etishga intilishi badiiy talqin qilinadi. Falsafiy-ruhiy xarakterdagi ayrim lirik asarlarda insonning moddiy borliq doirasidan tashqaridagi hodisalarni anglashga intilishi, ruh va jism, borliq va yo‘qlik, foniylik va boqiylik munosabatlari haqidagi mushohadalari yetakchi o‘rin tutadi. Bunday she’rlarda lirik subyektning botiniy olamiga yuzlanishi, o‘zligini anglash orqali hayot va borliqning teran mohiyatini idrok etishga intilishi kuzatiladi. Shu jihatdan ularda transsendentlikka intilish, ya’ni inson idroki va kundalik tajribasi chegaralaridan tashqaridagi ma’no va hodisalarni badiiy anglashga urinish namoyon bo‘ladi.

Bu atama odatda falsafada, ayniqsa, Immanuil Kant falsafasida qo‘llaniladi va insonning kundalik tajribasi chegaralaridan tashqaridagi hodisa hamda tushunchalarni anglatadi. Bunday poeziyada ruhiy va ma’naviy teran ma’nolar, insonning ichki olami, uning cheksizlik va olam bilan bog‘liqligi ifodalanadi. Bu turdagi she’rlar ko‘pincha ezoterik, mistik va falsafiy mavzularni qamrab oladi. Biroq zamonaviy she’riyatdagi bunday izlanishlarni transsendent lirikaning bevosita davomi sifatida emas, balki insonning ruhiy-ma’naviy olami va borliq mohiyatini yangicha poetik idrok etish shakllaridan biri sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, o‘zbek mumtoz she’riyatida tasavvufiy qarashlar asosida yaratilgan lirik asarlarda insonning ruhiy kamolotga intilishi, Yaratuvchini tanish, Mutlaq Borliq mohiyatini anglash, foniylik va boqiylik munosabatlarini idrok etish kabi masalalar yetakchi o‘rin tutadi. Bunday asarlarda insonning zohiriy olamdan botiniy olam sari yuzlanishi, nafs va moddiy manfaatlar ta’siridan xalos bo‘lib, ma’naviy yuksalishga intilishi badiiy talqin etiladi. Shu jihatdan tasavvufiy lirika mazmunida inson idroki va kundalik tajribasi chegaralaridan tashqaridagi haqiqatlarni anglashga intilish bilan bog‘liq transsendent xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy falsafiy-ruhiy va ezoterik xarakterdagi lirikada ham insonning ichki olamiga sayohati, o‘zligini anglashga intilishi, ruhiy-ma’naviy izlanishlari muhim o‘rin tutadi. Biroq bu izlanishlar mumtoz tasavvufiy lirikaning an’anaviy timsollari va ramzlarini aynan takrorlamaydi. Aksincha, ularda zamonaviy insonning ruhiy holati, ichki ziddiyatlari, borliq va o‘zlik haqidagi mushohadalarini ifodalovchi yangi poetik obrazlar, ramzlar va metaforalar yuzaga keladi. Shunday qilib, zamonaviy she’riyatda transsendentlikka intilish mumtoz tasavvufiy lirika bilan ayrim mazmuniy mushtarakliklarga ega bo‘lsa-da, o‘zining ifoda vositalari va badiiy idrok shakllari jihatidan yangi estetik ko‘rinish kasb etadi. M. Oymatovaning “Duo”, “Taklif”, “Nostalgiya”, G. Asqarovaning “Xirgoyi”, D. Komilning “Muhlat tugab borar”, “Mahzun asotir”, O. Asilbek qizining “Arosat”, “She’riyatga qadam” kabi she’rlarida o‘z kuchiga ishona oladigan va har bir insonda ulkan salohiyat hamda cheksiz imkoniyatlar yashiringanini ko‘rsata oladigan lirik qahramon ruhiyati bilan

ISSN 3060-5059 (Online)

tanishamiz.

Iste'dodli shoira M. Oymatova qalamiga mansub "Nostalgiya" she'rida yetakchilik qilgan obraz — armon obyekt sifatida muayyan bir makonda mavjud emas, balki qalbga o'rnashib qolgan xotiraning kecha va bugun bilan ruhiy olishuvi orqali tasvirlanadi. Ko'pincha bunday vaziyatlarda kichik bir sabab katta xotiralarni yodga solishi go'zal va jozibador tarzda talqin qilinadi:

Sizga ayon emas bu hasrat,
Oppoq motam tutadi G'ussam.
Mensiz qolsa chekar nadomat,
Yashil gullar yoniga kelsam.
Tozalayman G'iybatdan Baxtni,
Farrosh xayol artar chang – Dardni.
Xona – Ishqning hur vayronasi,
U jimgina yutar G'am-dardni.
Meni, meni qo'msaydi G'ussa,
Ketib qolsam quvonchga tomon.
Seni Shodlik qo'liga tutib,
Meni qadar olgandir tovon.
Shundan kunga ming bor qaytaman
Oppoq motam libosli Dardga.
Shundan ko'zim kular-u yig'lar
Hatto sabo keltirgan Gardga.
Hur vayrona qayg'umning uyi,
Ishq – Qayg'umning ming ohang, kuyi.
Vale menda millionta ohang!

M. Oymatova ijodida har ikki — an'anaviy va noan'anaviy uslubdan birdek foydalanish tajribasi ham uchraydi. Ya'ni uning mumtoz adabiyot ixlosmandlari hamda zamonaviy she'riyatga qiziquvchilar uchun birdek mos asarlar yaratganiga guvoh bo'lamiz. Har ikki uslubning bir she'rda qo'llanilishi an'anaviy shakl bilan yangi usullarning uyg'unlashuvi ko'p qatlamli va murakkab poetik tajribalarni yuzaga keltirayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, an'anaviy va noan'anaviy usullarga birdek murojaat qilish orqali shoiralar adabiy an'analar o'rtasidagi aloqadorlikni saqlab qolishga erishganliklari ma'lum bo'ladi.

Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek shoiralari ijodidagi ko'plab manzumalar o'z o'quvchisiga so'z bilangina emas, balki ruhiy holat, poetik kayfiyat va ramziy ifodalar orqali ham murojaat qiladi. Bunday she'rlarda lirik kechinma bevosita bayon etilishidan ko'ra, obrazlar, timsollar, metaforalar va o'ziga xos poetik ifoda vositalari orqali namoyon bo'ladi. Insonning ruhiy holati va fazoning cheksizligi o'rtasidagi bog'liqlik, tabiat go'zalligi, odam va olam munosabatlarining moddiy hamda falsafiy mohiyati, ruhiy-ma'naviy izlanishlar, hayot va o'lim, vaqt va abadiyat singari masalalar zamonaviy shoiralar lirikasining mavzuviy doirasini kengaytiradi.

Bu jarayonda poetik yangilanishlar nafaqat zamonga xos mavzularni badiiy talqin etishda, balki an'anaviy poetik ifoda me'yorlarini yangilash, obrazlar tizimi va ramziy-metaforik tasvir imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanishda ham namoyon bo'ladi. Ayrim lirik asarlarda insonning o'z botiniy olamiga yuzlanishi, o'zligini anglashga intilishi, borliqning teran mohiyati haqidagi mushohadalari yetakchi o'rin egallaydi. Ularda transsendentlikka intilish bilan bog'liq ruhiy-falsafiy izlanishlar ham zamonaviy inson tafakkuri va kechinmalari bilan uyg'un holda badiiy ifodasini topadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek shoiralari ijodida kuzatilayotgan noan'anaviy poetik izlanishlar she'riyatning mazmuniy va shakliy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, insonning o'zini, atrofidagi olamni va hayot mohiyatini yangicha idrok etishiga xizmat qiladi. Bugungi dunyoning murakkab, ziddiyatli va tez o'zgaruvchan sharoitida inson qalbidagi ruhiy muvozanat, ma'naviy ehtiyoj va ezgulik tuyg'ularini anglashga undashi esa poeziyaning ma'rifiy-estetik ahamiyatini yanada oshiradi. Demak, zamonaviy noan'anaviy she'riyat voqelikni shunchaki tasvirlash bilan cheklanmay, o'quvchini mushohadaga, o'z ichki olamiga nazar tashlashga va insoniy qadriyatlar haqida teranroq fikrlashga chorlaydigan badiiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Будугаи О. И. А. Эзотерический аспект поэзии [Электронный ресурс]. – URL: https://zounb.zp.ua/resourse/zaporizkyy-kray/.
2. Komil D. Zamonaviy o'zbek she'riyati [Elektron resurs]. – URL: https://n.ziyouz.com/.
3. Коркунов А. Эзотеризм в системе культуры и творчестве человека [Электронный ресурс]. – URL: https://elar.urfu.ru/.
4. Mingboyeva D. She'rlar [Elektron resurs]. – URL: https://kitobsevar.uz/.
5. Oymatova M. O'zbek she'riyati [Elektron resurs]. – URL: https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/.
6. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 261.